

SHARTNOMA № 11
Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha

2022 yil « 16 » may

Farg'ona shaxar.

Ikki tomonkarma xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiaga asosan faoliyat yurituvchi Farg'ona viloyat VXTB tassarufidagi kuzi ojiz va kar uquvchilarga ixtisoslashtirilgan maktab internati nomidan raxbar E.Mamataliev (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomonidan va uz Nizomi asosida ish yurituvchi Qurilish Optima MCHJ (keyingi o'rinnlarda «Ijrochi» deb ataladi) nomidan rahbar D.Mirzaev ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani kuyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar:

1. SHARTNOMA PREDMETL

1.1. «Ijrochi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Farg'ona viloyat VXTB tassarufidagi kuzi ojiz va kar uquvchilarga ixtisoslashtirilgan maktab internati binosi joriy tamirlash ishlarini loyixa-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda kabul kiliib olib, to'lovlarini amalga oshiradi.

2. SHARTNOMA BAXOSI.

2.1. Mazkur shartnoma buyicha «Ijrochi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari kiymati loyixa-smeta xujjatlariga asosan barcha soliqlar, yigimlar va ajratmalarni uz ichiga olgan xolda jami 668 250 000 (Olti yuzi oltmish sakkiz million ikki yuz ellik ming) so'mni. Shundan KKS 15 % 87 163 043 tashkil etadi

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bulganda «Buyurtmachi» va «Ijrochi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kushimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Ijrochi» tomonidan ta'mirlash ishlari tuliq bajarilgandan so'ng, uzaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari kiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida tulovini «Ijrochi» xisob raqamiga utkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlar xajmiga qarab, avans mablag'larini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI.

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan tulov amalga oshirilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida «Ijrochi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bulgan ishlar 2022 yil 28 iyun kuniga qadar tuliq yakunlanishi kerak.

4.2. «Ijrochi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yordari talablariga muvofiq bulishini va sifatlari bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Ijrochi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga riyoq qilgan xolda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. «Ijrochi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini tuliq xajnda va belgilangan muddatlerda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa-smeta xujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Ijrochi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar buyicha tuzilgan Shaki-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnomasi rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda «Ijrochi»ga xaber yuboriladi. «Ijrochi» tomonidan ushu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar uz mablag'i va uz kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi.

6. JARIMALARNI QO'LLANILISHI.

- 6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarilmagan yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda aytdor tomon ikkinchi tomoniga yetkazilgan zararni tuliq qoplaydi.
- 6.2. Agar «Ijrochi» tomonidan bajarilishi lozim bulgan ta'mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Ijrochi» bajarilmagan ishlari qiymatini 0.5% mikdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlari qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.
- 6.3. «Ijrochi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan tulovlar uz muddatida amalga oshirilmasa tukanmagan summani 0.4% mikdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Ijrochi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi utkazib berilmagan mablaglar summasini 50% dan oshmasligi kerak.
- 6.4. Jarimalar to'lanishi «Ijrochi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR XOLATLARI.

- 7.1. Agar ushbu shartnoma buyicha majburiyatlari qisman yoki tuliq bajarilmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshqa yengib bo'lmas kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

- 8.1. Ushbu shartnomani bajarish, uzungartirish va uni bekor qilishda paydo buladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishivi bilan xal qilinadi. Uzaro kelishilmasa xujalik sudi va Uzbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibda xal qilinadi.
- 8.2. Shartnoma taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki Uzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor kilish mumkin.
- 8.3. Ushbu shartnomani amal kilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha. Shartnoma ikki tomonlarga imzolanib, g'aznachilik boshqarmasi (bulim)dan ruyxatdan utkazilganidan suning qonuniga kuchga kiradi.

9. TOMONLARNI XUKUKIY MANZILI VA REKVIZITLARI

«Ijrochi»

“Qurilish Optima” MChJ

(mol yetkazib beruvchining nomi)

Manzil: Farg'ona shaxar S.Temur kuchasi 263 B-uy
Tel/faks: +998911660702
x/v 2020 8000 2053 2459 4001
Bank nomi Asia Alliance Bank ATB Farg'ona filiali
MFO 01173 STIR 308048660
OKONX _____



Raxbar: D.Mirzaev

Xuquqshunos:

«Buyurtmachi»

Fag'ona viloyat VXTB tassarufidagi kuzi ojiz va kar uquvchilarga ixtisoslashtirilgan maktab internati

(Budgetdan mablag oluvchining nomi)

Manzil: Marg'ilon shaxar Toshken berk kuchasi
Tel/faks: 99 99 75655

sh/x 10002186030412733200075002
budgetdan mablag oluvchi STIR 209744218
OKONX:

G'aznachilik nomi Farg'ona viloyati buyicha
G'aznachilik boshqarmasi
G'azna x/v 23402000300100001010
Bankning nomi Markaziybank XKKM
Toshken: MFO0001
G'aznachilik STIR 201122919

Buyurtmachi raxbari: E.Mamatov
(Avvaloni) (F.I.S)

E.Mamatov

M.U

QURILISH
OPTIMA